

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot tizimi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot tizimi O'zR Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 21 martdagi PQ-1730-son qaroriga asosan tashkil etilgan. Tizim 2013 yilning may oyidan bosqichma-bosqich ishga tushirilgan. Tizim yordamida kiruvchi va chiquvchi hujjatlar bilan ishlash, ijro intizomini nazorat etish, turli shakldagi hisobotlar va hujjatlarni shakllantirish, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash va shu kabi boshqa ko'plab jarayonlarni avtomatik ravishda amalga oshirish mumkin.